

«ASAKA» BANKIGA 21 YIL

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan 1995 yil 7 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 424-sonli Qaroriga asosan tashkil etilgan «Asaka» aksiyadorlik tijorat banki 21 yillik faoliyati mobaynida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida faol ishtirok etib, bank xizmatlari bozorida yetakchilik mavqeiga ega bo'ldi. Bank yurtimiz iqtisodiyotining barcha tarmoqlari ishtirokchilari bilan yaqindan hamkorlik qilishga intilgan holda, o'z oldiga mulkchilik shakli va faoliyat ko'lamidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarga, shuningdek, aholiga keng doiradagi bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. E'tiborlisi shundaki, bank har bir mijozning individual talabidan kelib chiqqan holda, asosiy e'tiborini ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatiga qaratmoqda.


«Asaka» bank o'z tarkibiy tuzilmalari faoliyati samaradorligini oshirish va mamlakatimiz moliya bozoridagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha faol ishlarni muntazam ravishda olib bormoqda. Hozirgi kunda bankning respublikamiz barcha hududini qamrab olgan keng tarmoq bo'linmasi – 26 filiali, 85 minibanki, 272 chakana bank xizmatlari ko'rsatuvchi shaxobchalari mavjud. Bank mijozlari soni esa 1,8 mln. nafardan oshdi. Mijozlar tarkibida iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida faoliyat yuritayotgan korxonalar, tashkilot va birlashmalar o'rin olgan. Jumladan, bank tomonidan avtomobilsozlik, tog'-kon, neft-gaz, kimyo, energetika, engil, oziq-ovqat, farmatsevtika sanoati, transport, qurilish hamda boshqa tarmoqlar korxonalar va tashkilotlariga, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga barcha turdagi bank xizmatlarini ko'rsatmoqda.

Bank jahon va ichki bozor konyunkturasi o'zgarishlariga hozirjavob bo'lgan holda, O'zbekistondagi va xorijdagi banklar bilan vakillik munosabatlarini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratmoqda. Vakillik munosabatlarini o'rnatishda «Asaka» bank birinchi navbatda, mijozlar manfaatlarini himoya qilishga intilmoqda. Ular uchun qulay sharoitlar bankning ko'p yillik faoliyati davomida samaradorlik, to'lovlarning kam xarajatliligi, qat'iy ijro muddati va vositachilik xarajatlarning minimal miqdori o'rnatilishi hisobiga yaratildi.

Hozirda «Asaka» bank jahonning 350 dan ziyod yetakchi banklari bilan vakillik munosabatlariga ega. Eng yirik xorijiy banklardagi vakillik hisobvaraqlari tarmog'i orqali «Asaka» bank jahonning asosiy moliyaviy markazlarida o'zining ishtirokini ta'minlamoqda.

Iqtisodiyotning mustahkam tayanchi


Bugungi kunda jahonning rivojlangan davlatlarida banklarning reyting ko'rsatkichlari darajasi pasayotgan bir paytda xalqaro reyting agentliklari tomonidan O'zbekiston bank tizimi va tijorat banklariga yuqori reyting baholarining berilishi mamlakatimizda bank tizimiga qaratilayotgan yuksak e'tibor va ishonchning mahsuli bo'lib, buning natijasida bank tizimining yanada barqaror rivojlanishiga erishilmoqda.



Bunga birgina «Asaka» bank faoliyatiga xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan yuqori reyting baholari yorqin misoldir. Jumladan, «Moody's» va «Fitch Ratings» singari jahonning yetakchi va nufuzli xalqaro reyting agentliklari «Asaka» bank faoliyatini qatorasiga bir necha yillardan beri yuqori reyting bahosi bilan e'tirof etmoqda. «Asaka» bank «Barqaror» deb tan olinmoqda.

Shu bilan birga, jahonning nufuzli nashrlaridan bo'lgan «Euromoney», «Global Finance» va «The Banker» tomonidan «Asaka» bank bir necha marotaba «O'zbekistonda yilning eng yaxshi banki» deb tan olindi.


Joriy yilda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarining 200 ta yirik banklari reytingida «Asaka» bank o'z pozitsiyasini ildam ravishda bir necha pog'onaga yaxshiladi va 86-o'ringan 65-o'ringa ko'tarildi.



«Asaka» bank tomonidan investitsion jozibadorlikni oshirish, yuqori likvidlilik va barqarorlikni, asosiy ko'rsatkichlarning ildam o'sishini ta'minlash va ularni jahon standartlari talablari darajasiga yetkazish orqali raqobatbardosh, ichki bozor va eksportga mos mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi mijozlarga hamda xorijiy xamkorlarga sifatli bank xizmatlarini ko'rsatish yo'lida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xozirda «Asaka» bank jami aktivlari 8,03 trln.so'mga, jami kapital 993,2 mlrd.so'mga yetdi. Istiqlol yillarida bank jami aktivlari 147 baravardan ziyodga, jami kapitali qariyb 49 baravarga o'sdi.

Respublikamiz iqtisodiyotining turli sohalariga yo'naltirilgan bank kredit qo'yilmalari hajmi 4 082,5 mlrd.so'mni tashkil qildi. Kredit qo'yilmalarining asosiy qismini uzoq muddatli kreditlar tashkil etadi. Istiqlol yillarida bank kredit qo'yilmalari hajmi 205 baravarga o'sdi.



Joriy yilning o'tgan davri mobaynida bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi «Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun 1 174,5 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yilga mo'ljallangan Investitsion dasturiga muvofiq investitsion loyihalarni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar hajmi 687,2 mln.AQSh dollarini tashkil qildi.

Ajratilgan kreditlar yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishga, axborot-kommunikatsiya tizimi, biotexnologiya va boshqa ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi.

«Asaka» bank tomonidan respublikamiz viloyatlarida uy joy qurilishi loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha ham faol ishlar olib borilmoqda. Ushbu maqsadlarga bank tomonidan 445,0 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Bank kreditlari hisobiga 74 ta ko'p qavatli turar joy binolari qad ko'tardi. 2099 nafar oila barcha qulayliklarga ega bo'lgan xonadonlarga ega bo'ldilar.

Bank tomonidan joriy yilda 28,1 mlrd.so'm miqdorida lizing xizmatlari ko'rsatildi. Bank lizing portfeli hajmi 113,8 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bank lizing portfeli sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va aloqa, qurilish, ijtimoiy soha va boshqa tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiyalashtirilgan.

Mamlakat iqtisodiyotining yanada o'sishi va mustahkamlanishi omillaridan biri - bu iqtisodiy nochor va bankrot deb e'lon qilingan korxonalar faoliyatini jonlantirish, ularga moliyaviy ko'mak berish va shu orqali ushbu korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bu sohada asosiy dasturulamal bo'lmoqda. «Asaka» bank tomonidan bu sohada ham muhim yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan, Bank balansiga qabul qilingan bankrot korxonalarining 46 tasi yangi investorlarga sotildi. Bankrot korxonalar negizida bankning 14 ta sho'ba korxonasi tashkil qilindi. Tashkil etilgan bank korxonalariga jami 79,9 mlrd.so'm miqdorida investitsiyalar kiritildi. Natijada 4116 nafar yangi ish o'rinlari yaratildi. Ishlab chiqarish faoliyati tiklangan bankrot korxonalarda jami 690,6 mlrd.so'm miqdorida mahsulotlar ishlab chiqarildi va 72,2 mln.AQSh dollari miqdoridagi mahsulotlar eksport qilindi.

Tadbirkorlarning ishonchli hamkori

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar samarasida ushbu sohaning respublikamiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi izchil yuksalmoqda. Soha subyektlariga berilayotgan imkoniyatlar ichki iste'mol bozorini yanada rivojlantirish, raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qilmoqda. Bunda avvalo, banklar tomonidan kichik biznes subyektlari faol qo'llab-quvvatlanib, soha vakillarining faoliyat rivoji va istiqbolini ta'minlash yo'lida taqdim etilayotgan imtiyozli shartlardagi kreditlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.


Yurtimizda istiqloq yillarida iqtisodiyotning barcha sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar istiqbolini ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilib, ularning bir bo'lagi sifatida banklar tomonidan istiqbolli tarmoqlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan qulay kreditlash mexanizmini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilganini qayd etish mumkin. Bu o'z navbatida, kreditlash amaliyotlarining soddalashtirilishiga hamda tadbirkorlik subyektlari uchun qulay biznes muhitining yaratilishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunga kelib kichik biznes subyektlari banklar kreditlaridan unumli foydalangan holda, o'z tadbirkorlik faoliyatlarini kengaytirishga hamda iqtisodiyotimiz rivoji va aholi farovonligiga munosib hissa qo'shishga erishmoqdalar.

Bu borada mamlakatimiz rahbariyati tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish yo'lida yaratilgan huquqiy asoslar yanada mustahkamlanayotgani soha subyektlari faoliyatining jadal taraqqiy etishida muhim omil bo'lmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrda qabul qilingan «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni ham ushbu yo'nalishdagi ishlar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqishda ayni muddao bo'ldi. Ushbu farmon asosida xususiy mulkni xuquqiy himoya qilishni yanada kuchaytirish, barcha hududlarda yanada qulay biznes muhit va shart-sharoitlar yaratish,

soha subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish maqsad qilingan.

Bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'naltirayotgan kreditlar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Joriy yilda ushbu maqsadlarga ajratiladigan kreditlar hajmini 2002 yildagiga nisbatan 101 baravardan ziyodga o'sishi mo'ljallangan. Joriy yilning 10 oyi davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga 1 328,5 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Bu mablag'lar respublikamizda ishlab chiqarish, servis va xizmat ko'rsatish ko'lamlarini kengaytirish, viloyat, shahar va qishloqlar iqtisodiyoti va ijtimoiy turmushini yuksaltirishga, mamlakat kuch-qudratini oshirishga munosib ulush bo'lib qo'shildi. Mazkur sarmoyalar evaziga qo'shimcha ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilib, yoshlar, ayniqsa kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari ish bilan ta'minlandilar.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi va 2009 yil 28 yanvardagi «Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlari ijrosi yuzasidan 555,1 mlrd.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi. Natijada, mahalliy iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sohasida ijobiy o'zgarishlarga erishildi.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini tadbirkorlikka jalb qilish va shu orqali ularni ish bilan ta'minlash bo'yicha ham bank tomonidan faol ishlar olib borilmoqda. Joriy yilda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga chorvachilik, asalarichilik, parrandachilikni rivojlantirish va issiqxonalar tashkil etish uchun qariyb 12,9 mlrd.so'm miqdorida imtiyozli shartlarda kreditlar ajratildi. Bank kreditlari tufayli ularning o'z ishlarini tashkil etish bo'yicha azaliy orzu-umidlari ro'yobga chiqdi. Hozirda ular oilalari farovonligini ta'minlab, yangi ish o'rinlarini tashkil etish va yoshlarni ish bilan ta'minlashga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25 maydagi «O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga asosan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi ayollarga ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish maqsadlariga 111,7


mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi. Bank sarmoyalari tufayli ayol tadbirkorlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish, aholiga savdo va servis xizmatlarini ko'rsatish hamda boshqa tarmoqlar rivojlantirildi, oilaviy biznes, hunarmandchilik va kasanachilik bilan shug'ullanuvchi tadbirkor opa-singillarimizni safi kengaydi. Buning natijasida ko'plab xotin-qizlar doimiy ish joylari bilan ta'minlandilar, demak-ki barqaror ish haqiga ega bo'ldilar.

«Asaka» bank tomonidan joriy yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni trivojlantirishga 1,6 trln.so'm miqdorida kreditlar ajratilishi rejalashtirilgan.

Aholi omonatlari – investitsiya resurslarning muhim omili

Bugungi kunda banklar tomonidan mijozlar uchun keng doiradagi chakana bank xizmatlarini taklif etish, jozibador omonat turlarini faol joriy etish faoliyat samaradorligining muhim omili bo'lmoqda. «Asaka» bank mamlakatimiz chakana bank xizmatlari bozorida aholi ishonchini qozonib, o'z xizmatlari turini tobora kengaytirayotgan moliya muassasalaridan biridir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 6 apreldagi «Aholi va ho'jalik subyektlarining bo'sh pul mablag'larini tijorat banklaridagi depozitlarga jalb etishni yanada rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi»gi va 2015 yil 6 maydagi «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlariga muvofiq hamda aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustaxkamlash, naqd pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini qisqartirish, mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va aholining turmush darajasini oshirish uchun investitsiya resurslarining g'oyat muxim manbai sifatida aholining erkin pul mablag'larini tijorat banklari omonatlariga jalb etishni yanada rag'batlantirish maqsadida «Asaka» bank tomonidan faol ishlar olib borilmoqda. Jumladan, hozirgi kunda 40 turdagi milliy va xorijiy valyutadagi omonatlar joriy qilingan bo'lib, omonatlarni bankning barcha filiallarida rasmiylashtirish mumkin.



Bank tomonidan naqd pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini keskin qisqartirish va aholining bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb qilish bo'yicha olib borilgan faol ishlar natijasida aholi omonatlari qoldig'i 2016 yil 1 noyabr holatiga kelib

747,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Omonatchilar soni 1 845,8 ming nafardan oshdi. Bu esa aholining «Asaka» bankiga bo'lgan ishonchini yanada ortayotganligining yorqin ifodasidir.

Aytish o'rinliki, «Asaka» bank taklif etayotgan omonatlar Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tomonidan himoyaga olingan bo'lib, omonatlar deklaratsiya qilinmaydi, ular bo'yicha ma'lumotlar sir saqlanadi hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan ozod etilgan.

«Asaka» bank tomonidan aholi bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar respublikamiz bank tizimi rahbariyati tomonidan munosib baholanmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va Banklar Uyushmasi tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 31 oktyabrdagi «Aholining omonatlarini jalb qilish bo'yicha Respublika tijorat banklari o'rtasida tanlov o'tkazish to'g'risida»gi Qaroriga asosan 2015 yil yakunlari bo'yicha tanlov o'tkazildi.

Tanlov yakunlariga ko'ra «Asaka» bank g'olib deb topilib, «Aholi omonatlarini jalb qilish bo'yicha yilning eng yaxshi banki» nominatsiyasi bo'yicha uchinchi o'ringa sazovor bo'ldi.

Bankning Surxondaryo viloyat filiali «Shaharlarda aholi omonatlarini jalb qilish bo'yicha yilning eng yaxshi filiali» nominatsiyasi bo'yicha g'olib chiqdi va ikkinchi o'rinni egalladi.

Shuningdek, «Asaka» bank tomonidan joriy etilgan «Qadriyat» omonat turi «Milliy valyutadagi eng yaxshi muddatli depozit» deb topildi.

Ushbu yutuqlarga erishish «Asaka» bank tizimida mazkur sohada olib borilayotgan ishlarning to'g'ri yo'lga qo'yilganligidan dalolat bermoqda.

Plastik kartochkalar – qulay to'lov vositasi


Mamlakatimizda plastik kartalar nainki bank-moliya tizimi, balki respublikamiz to'lov tizimi istiqbolini belgilovchi eng muhim vositaga aylanayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Zero, buning muhimligini har bir fuqaro yaxshi anglamoqda hamda undan samarali foydalanmoqda.

Respublikamizda plastik kartalar tizimini rivojlantirish va kengaytirishda «Asaka» bank ham keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

Hozirda mamlakatimiz to'lov tizimi rivojida bank plastik kartalari nechog'li muhim ahamiyatga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'layapti. Chunki plastik kartalar birinchidan, aholiga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni, stipendiya va pensiya to'lovlarini o'z vaqtida to'lash imkoniyatini bersa, ikkinchidan, aholi tomonidan kommunal to'lovlar bo'yicha qarzdorliklarni kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik, savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda xarid qilingan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha to'lovlarni tezkor amalga oshirishga sharoit yaratmoqda.

Shu bilan birgalikda, «Asaka» bank tomonidan plastik kartochka egalariga plastik kartochkadagi pul mablag'lari qoldig'iga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking qayta moliyalashtirish stavkasi miqdorida daromad hisoblanib berilmoqda, bu esa o'z navbatida plastik kartochkalardan nafaqat to'lov vositasi sifatida, balki jamg'arma vositasi sifatida ham foydalanishga imkoniyat yaratmoqda.

Mijozlarga masofadan xizmat ko'rsatish turlarini kengaytirish maqsadida mobil ilova orqali bir plastik kartadan boshqa plastik kartaga mablag'lar o'tkazish xizmat turi joriy qilindi.



Bu kabi qulayliklar plastik kartalar orqali amalga oshirilayotgan naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmini tobora kengaytirishga xizmat qilmoqda. 2016 yil 10 oyi davomida plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan savdo aylanmalari miqdori qariyb 2,0 trln. so'mni tashkil qildi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 572,1 mlrd. so'mga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 19 apreldagi «Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida plastik kartalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha muayyan ishlar olib borilmoqda. Bank tomonidan 2016 yil 1 noyabr holatiga ko'ra 1 730,4 ming dona plastik karta muomalaga chiqarildi. Savdo nuqtalari va bankning chakana bank xizmatlari ko'rsatish shahobchalariga 11 075 ta terminal, 66 ta infokiosk va 27 ta bankomat o'rnatildi. 9950 ta korxonalar va tashkilotlarda «ish haqi» loyihalari joriy etildi.

Plastik kartalar orqali xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish maqsadida bank tomonidan o'rnatilgan infokiosk va bankomatlar orqali mijozlar plastik kartochka yordamida qaysi bank emitenti bo'lishidan qat'i nazar, barcha kommunal xizmatlar va uyali aloqa uchun to'lovlarni tezkor amalga oshirish, o'z hisob raqamidagi pul mablag'lari holati bo'yicha ma'lumotlarni olish, pul mablag'larini plastik kartalarga yuklab olish imkoniyati yaratilgan. 2016 yil 1 noyabr holatiga ko'ra, plastik kartalar orqali kommunal xizmatlar uchun amalga oshirilgan to'lovlar hajmi 96,7 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Mamlakatimizning yirik banklari qatorida «Asaka» bank tomonidan «so'm» plastik kartalarini rivojlantirish bilan birga, «MasterCard» va «Maestro» xalqaro plastik kartalari orqali ham xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Plastik kartalarning bunday keng ko'lamlı tizimini joriy etilishi mijozlarga xalqaro munosabatlarda, xalqaro savdo, turizm va boshqa yo'nalishlarda ham xizmatlarning keng doirasini taklif etishda muhim

ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda muomalaga chiqarilgan halqaro plastik kartalar miqdori 154,0 ming donani tashkil etdi.

Xulosa qilib aytganda, «Asaka» bank jamoasi mijozlarga yuqori sifatli bank xizmatlarini ko'rsatib, moliya bozordagi o'zining ishtirokini kengaytirishga va aholining har tomonlama moliyaviy ko'makchisi bo'lishga faol kirishgan. Bu esa, bankning aholi bilan munosabatlarini yanada yaxshilab, ularning ishonchini mustahkamlashga xizmat qilishi tabiiy.

Bank Axborot xizmati